

ANTRAPONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (TOG'OY MUROD ASARLARI MISOLIDA)

Eshmirzayev Bahodir Jo'rayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute o'qituvchisi,

+99897 194 24 73

eshmirzayevbahodir@com.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371307>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murod qissalarida antroponimik so'zlarning leksik-semantik tasnifi, ularning tuzulishi hamda hozirg adabiy jarayonda so'zlarning qo'llanilishi ifodalangan. Tog'ay Murod qissalari orqali antroponimik so'zlarning zamonaviy o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayonda leksik-semantik qo'llanilishi keltirib o'tilgan

Annotatsiya: В этой статье представлена лексико-семантическая классификация антропонимических слов в рассказах Тогая Мурада, их структура, а также использование слов в современном литературном процессе. В рассказах Тогая Мурада приводится лексико-семантическое использование антропонимических слов в современной узбекской литературе и современном литературном процессе.

Annotatsiya: In this article, the anthropocentric interpretation of anthroponyms' in Togay Murad's stories and their structure, and from the anthropocentric point of view, anthroponyms are distinguished by their advanced features in the system of proper nouns.

Kalit so'zlar: Shaxs, ism, laqab, taxalluslar, qul, chevara, nevara, malay, qo'shchi, firqa, beva, qizil, cho'ri gudak, zaifa, eshon, mirza, otinbibi, xalq, kabilar.

Antroponimiyaga kiruvchi mikroko'lam tarkibi: ismlar-odamga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot.laqab -shaxsga uning atrofda gilarlari tomonidan beriladigan, kishining xarakterli belgi va xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qo'llanuvchi nomi. Familiya -oila, avlodga mansubligini ko'rsatadigan, avloddan-avlodga me'ros bo'lib o'tadigan rasmiy nomi. Ota ismi -shaxsning otasi yoki bobosi ismidan keyin "o'g'li" "qizi" so'zlarini keltirish yoki -ovich (ovna), -yevich (-yevna) qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladigan atoqli ot. Patronim -shaxsni uning avlod-ajdodlari nomini keltirish usulida atash. Matronim -ona (ayol)ning ismi yoki laqabidan yasalgan ism yoki familiya. Elonim -mashhur shaxs(lar) nomiga nisbat berilgan atoqli ot. Taxallus- ijtimoiy faoliyati jarayonida shaxsning o'zi tanlagan, uning asosiy ismi bilan birgalikda yoki uning o'rnida qo'llaniladigan to'qima atoqli ot. Genonim -urug', avlod-ajdod va ular tarmoqlarining atoqli oti. Antroponim -asli grekcha so'z bo'lib, ap! go -odam+op 1M, ya'ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O'zbek tilida bu termin o'rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qo'llaniladi. Ushbu maqolada Tog'ay Murodning " Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida asosan antroponimlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Asarda Qodir **qulni chevarasi**, Xolmat **malayni nevarasi**, Eson **xizmatkorni** bolasi- Botir **qo'shchi** jumlasini bilan boshlangan bo'lib, yozuvchi quyida har-bir ismlar, laqab va taxalluslarni xarakter-xususiyatlarini shaxslar orqali g'oyat nozik, g'oyat shoirona tasvirlaydi. Yozuvch asarda davr munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan voqealar va kechagina jamiyatimizda ro'y bergan inson qadrlarining, o'z xalqlarining milliy urf-odatlarini, his -tuyg'ularini bilmaslikdan bo'ldi, so'qirko'ngillik, so'qirko'zlikdan bo'ldi. Asarda qul, cho'ri, beva, firqa, gudak, qari, zaifa, xo'ja, eshon, mirza, partiya, communist, otinbibi, xalq, kelt, britt, lider, gimmer, go'rkov, orol,

paxta, kpss, harbiy, inqilob ,din, ruh kabi nom va ism laqablarning qo'yilishi ham yozuvchi mahoratidir. Shaxs nomlari: Sh.Rashidov, Stalin, Xrushchev, Yo'ldosh Oxunboboyev, Brejnev, Ivan Grozniy, Lenin kabilar. Asarning asosiy qahramonlari, Botir firqa, Obod Mirzaxo'jayeva, Dilbar Mirzaxo'jayeva, shoir Madiyev singari shaxslarning ichki kechirmalari rivojida jamiyatning, tuzumning jirkanch illatlarini xalqona ochib beradi. Yozuvchi o'z qarashlarini jiddiy ahvol, keskin vaziyat va muayyan shart-sharoitlarda ham badiiy obraz orqali ifodalay oldi.

Antroponimik birliklar. Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo'lib, u o'z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronym kirishini qayd qilgan Asarda bosh qahramon Botir **firqaning** xarakter- xususiyatlari, ichki kechinmalari hayot bilan chambarchas bog'langan. Yozuvchi aynan ismlarga **firqa, qo'shchi, malay va qul** taxalluslarini qo'yishi ham oddiy holat emas. Antroponimika o'rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi kishi atoqli oti bo'lgan quyidagi onomastik vositalar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir: 1. Ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar. 2. Laqablar. 3. Taxalluslar. 4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi" "o'g'li") yordamida nomlash.

1. Begmatov E., Avloqulov Ya. Onomastik ko'lam tushunchasi / / O'zbek tili va adabiyoti. 2007 yil 3-son. 1-7-betlar.

2. Begmatov E, Avloquloq Ya. // Onomastik ko'lam tushunchasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2007 yil 3-son. 10-11-betlar.

5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida. 6. O'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari. Yuqorida keltirilganlar antroponimik birliklardir va ularni Tog'ay Murod qissalarida ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asarda Botir qo'shchi, Botir firqa deb murojaat etgan. Qo'shchi- qadimgi turkiy qabilalardan biri. 6-7 asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi paytida Dashti Qipchoqqa kelib joylashgan ekan. XVI asr boshlarida Shayboniyxon qo'shinlari tarkibida Movarounnahrda kelishgan. Ular Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlarining boshqaruv tizimida faol ishtirok etganlar. Buxora amirligi davrida qo'shchilarning vakillari taxtga chiqarish marosimida ishtirok etishgan. XIX-XX asr boshlarida qo'shchilar quyidagi urug'larga bo'lingan: qashg'arlik, to'qqiz novcha, shix-sayod, moli. Ularning katta qismi Samarqand viloyatining Urgut, Jomboy tumanlari, shuningdek, Jizzax viloyatida ham yashagan. Qo'shchilar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, 16-17-asrlar davomida o'rtoqlashib, keyinchalik o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan. Chingizxon avlodi sifatida qo'shchilar tushuniladi. Hozirda Chiroqchi tumanida dashtli yerlarda yashaydilar. O'zlarini qo'shchi sifatida atashadi. Ugaday xon o'g'li qo'shchining avlodlari sifatida ko'riladi. Asarda Botir firqa, Botir qo'shchi ismi yozuvchi tomonidan shunchaki qo'yilgan emas. Demak asarda Botir ismiga qo'shchi laqabining qo'shilishi Botir + qo'shchi sifatida aytilishi, aynnan 70-80 yillarda yurtimizdagi jirkanch voqealar rivoji bilan bog'liqdir. Kambag'al dehqonlar manfaatini himoya qiladigan shaxs ham qo'shchi deyilgan. 1919-1930 yillarda faoliyat ko'rsatgan. [o'z.tilining izohli lug'ati 423- bet].

Qo'shchi so'zining yana bir ma'nosi qo'sh haydovchi kishi, o'zining yer haydash anjomlariga, ho'kkiz kabi ish hayvonlariga ega bo'lib, haqini kelishgan holda, zamindorlarning yerini haydaydigan kishi tushinilgan. Ming qo'shchiga bir boshchi. (maqol). [A.Qahhor. Sarob romani 128-bet]. **Qodir**- kuchli, qudratli, biror ishga kuchi, qudrati yetadigan: qudratli. ozod xalq, baxtiyor xalq, har-bir ishga qodir xalq. Qodir erkaklar ismi. [o'z.til.izoh. lug'at. 5-tom.322-bet]. **Qul**-eksplyatorlik jamiyatining ilk davrlarida xususiy mulk, mol qatori olib-sotilgan, butunlay xo'jayinga qaram bo'lgan, hech qanday haq- huquq va mol-mulkka ega bo'lmagan xizmatkor. [o'z.til.izohli lug'ati. 5-tom. 367-bet]. **Quloq**- Bozor ota allaqaerdan qochib kelgan quloq bo'lib chiqdi.[A.Rahmat.//varrakchi chol// 373-bet]

1. *Begmatov E, Avloquloq Ya.// Onomastik ko'lam tushunchasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2007 yil 3-son.323- 423-betlar.*

2.[A.Qahhor.Sarob romani 128-bet].

3.Tog'ay Murod./ Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi/ 40-43-betlar.

Botir firqani ko'pchilik "Qizil", deb biladi, uning uchun faxr bo'lgan ordenlarni uloqtirishni, e'tiqod qilib, yashab o'tgan umrining mazmuni sifatida har vaqt yonida iftixor bilan olib yurgan partbiletini talab qilishadi. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani xuddi shunday minglab "botir firqalar" oyoq qo'ygan zamin birdan yo'qolib, o'tmish va kelajak orasida muallaq turib qolgan bir davrda yozilgan. Tog'ay Murodning hech bir asarida "qizillik" tushunchasi ko'rilmagan, u hech vaqt "qizil" bo'lgan emas. Botir qo'shchi edi-"Botir firqa" bo'ldi, so'ngra "o'rtoq Esanov" bo'lib davr surdi.Esonboy degan borku, ushaniki,- Qizil deng,Qizil!!

Shugina Qizilda olam-jahon bog' bor-a?.-Oppoq soyalar o'tib ketdi. Botir firqa bu so'zlarni o'z qulog'li bilan eshitdi. Oppoq soyalar deb o'sha davrning harbiy xizmatchilari kiyadigan oppoq forma kiygan shaxslar nazarda tutilgan. Yozuvchi asarda bir qancha tarixiy shaxslar haqida ham fikr yuritadi va shunga o'xshash, asarda haqiqiy familiyalari ostida harakatlanuvchi sho'ro hukumatining taniqli arboblari (Poltoratskiy, Kolesov, Uspenskiy va b.), murakkab taqdir egasi polkovnik Chanishevlarining bitta hayotiy holat -Aqrab qo'rboshining qo'lga olinishi doirasida tasvirlangani ham shartlilikdan o'zga emas. Tog'ay Murod asarlarida kishi (qahramon) ismlari, taxallus va laqablar bilan birga aytiladi. Masalan, "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida, Qodir qul, Xolmat malay, Eson xizmatkor, Botir qo'shchi, shoir Madiyev, communist Ibodov, vrach Mirzayev va b. "Ot kishnagan oqshom" qissasida, Ziyodulla chavandoz, uzangi yo'ldoshlarim, soqoldor chavandoz, karim muallim, shlyapali odam, Qulmat palvon, Nazir juvozkash, Oman surnaychi, Xudoyqul duxtir, Xidir murob va boshqa ismlar uchraydi.-Ko'pkari qizigandan- qizidi. Shu vaqt, Jo'ra bobo ot yo'rttirib keldi.-Ziyodulla chavandoz, bizning To'riqniyam bir ko'ring, ukam, -dedi.Jo'ra boboning gapini yerda qoldirib bo'lmaydi. Jo'ra bobo oltmishdan oshib qoldi. Ammo farzandi yo'q. Ikki marta uylandi. Ikkovida-da farzand bo'lmadi. Uchinchisiga uylandi. Bundan-da bo'lmadi. Qo'yib yuborgan ayollari boshqalarga tegib-tegib ketdi. Bolalik bo'lib-bo'lib ketdi.

Shunda, Jo'ra boboning boshi egilib qoldi. Yuzi ko'ksiga qarab qoldi. Ko'chalarda etiklari uchiga qarab yurdi. Ovozini qo'yib gapirolmadi...

Tog'ay Murod mana shu joyda Jo'ra boboning hayotini g'oyat nozik, g'oyat shoirona tasvirlaydi. Farzand dog'ida kuygan, hayotda yashashdan umidi uzilgan inson qiyofasini Jo'ra bobo obrozi orqali o'zbekona tasvirlab berdi. Yozuvchining barcha qissalarida ham

kishi nomlari (ismlar) qahramonning , shaxsning fel-atvoriga, kasbiga va yoshiga qarab qo'yilgani ayni haqiqatdir. Tog'ay Murod oddiy haqiqatni ko'pchiligimizdan avvalroq anglagan, kal chavandoz yoki befarzand qariyalarning o'y- tashvishlari, dard-armonlari, tuyg'u-kechinmalari ancha-munchadan qolishmaydi , " kichik odam" larda-da katta qalb bo'ladi, degan aqida bilan ijod maydoniga kirib keldi.

Tog'ay Murod qissalarida antraponimlarning leksik-semantik xususiyatlari rang-barang berilgan. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul, Aqrab, Jamoliddin kabi obrazlar- adabiyot maydonida yangi hodisa. Asardagi obrazlarga tanlangan ismlar badiiy va mantiqiy mohiyat kasb etadi. Har-bir ism ulkan badiiy va kata ijtimoiy-psixologik vazifa bajaradi. Ism nosir badiiy niyatining "tashuvchisi", uni o'zida mujassamlashtirgan "kvant" sifatida namoyon bo'ladi va obrazlar tasvirida etnoruhiy ifoda, milliy donishmandlik, umuminsoniy ezgulik ifodasi zamirida o'ziga xoslikka ega ekanligi hamda adibning antraponimik obrazlar ta'minlashda o'zbek tili imkoniyatlaridan imkoniyatidan mohirona foydalangani ko'rsatib berilgan.

Tog'ay Murodning Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi asarida, Qodir qul, Xolmat malay, Eson xizmatkor va Botir qo'shchi kabi ismlar ketma-ketligi asar boshida Antroponimlarni estetik nuqtai nazardan baholash, ismlarga odamlarning munosabatini o'rganish asosida "yaxshi ism" va "xunuk ism", "eski ism", "yangi ism" kabi tushunchalarni ilmiy tanqidiy baholash hamda ismlar milliy fondiga odamlarning shaxsiy munosabatidagi salbiy jihatlarni aniqlash.

Milliy antroponimik fondning miqdoran kamayishi va qashshoqlashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish lozim. Hozirda o'zbeklar avvalgi ruscha shakldagi familiyalardan voz kechib, yangi shakllarga o'tmoqdalar. Bu jarayon hali uzil-kesil o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli bu masala muayyan izlanishlarni talab qilmoqda. Bu masalani o'zbekcha familiyalarning nominativ va amaliy jihatdan qulayligi, o'zbek tili ruhiga hamda rasmiy talablarga javob berishi nuqtai-nazaridan yondashib, hal qilishni talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., -2022. 6-7-bet.
2. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. -T., -2017, 176 bet
3. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. -T., 2022, 28-54 bet
4. Begmatov E., Qorayev S. Bizga familiya kerakmi. -T., 1991, 4-son 20-21b.